XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 18-mart VII-17-43-3-43-K/26 Arnasoy tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 1-maydagi “Arnasoy tumani bo‘yicha 2025-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-7-85-3-43-K/25-sonli qarorining ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori hamda 2025-yil sug‘orish mavsumi uchun suv olish limitlarini qayta tasdiqlash haqida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tumandagi bir qator fermer xo‘jaliklari tomonidan sug‘orish mavsumida limitga nisbatan ortiqcha suv hajmlaridan foydalanilgan.

Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi tomonidan 2151 ta iste’molchilarning 30,4 ming gektar sug‘oriladigan yer maydonlariga jami 156,8 mln m^3 suv yetkazib berilgan bo‘lib, shundan 127 ta suvdan foydalanuvchilarga sug‘orish mavsumida 34,6 mln m^3 limit belgilangan bo‘lsada, amalda 59,0 mln m^3 suv foydalanilishi natijasida belgilangan limitdan jami 24,5 mln m^3 suv oshiqcha sarflangan.

Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi tomonidan 2025-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun jami 171,8 mln m^3 suv limiti ajratilgan bo‘lib, shundan Janubiy Mirzacho‘l Magistral kanali va markaziy chap tarmog‘idan 87,86 mln m^3, LR-12 kanalidan 49,38 mln m^3, PR-12-4-kanalidan 31,55 mln m^3, zovur suvlaridan 3,0 mln m^3 suv limitlarini ajratilib, sug‘orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo‘yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yilda tumandagi bir qator fermer xo‘jaliklari tomonidan sug‘orish mavsumida limitga nisbatan ortiqcha suv hajmlaridan foydalanilganligi sababli xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 1-maydagi “Arnasoy tumani bo‘yicha 2025-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-7-85-3-43-K/25-sonli qarorining ilovasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi rahbari X.Eshonqulovning taklifi ma’qullansin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi (X.Eshonqulov)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;

- belgilangan limitlar asosida iste’molchilarga suv yetkazib berish;

- o‘ziga biriktirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;

- sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish;

- suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisoboti yuritilishini raqamlashtirish;

- iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish;

- suv iste’molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobotlarni o‘z vaqtida berib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror “Arnasoy tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi, ekologiya hamda sanoat, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Suyarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **BAYANASOV BOBIR OCHILOVICH**

Xalq deputatlari Arnasoy tumani
Kengashining
2026-yil 18-martdagi
VII-17-43-3-43-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Arnasoy tumani qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan 2025-yil sug‘orish mavsumida iste’mol qilingan suv

T/r	SIUlar va boshqa xo‘jaliklar nomi	Rejadagi suv miqdori	Oqim, mln.m3	aprel			may			iyun			iyul			avgust			sentabr		
				I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
1	Bobojon Fayziyev	10,01	**8,0**	0,37	0,43	0,46	0,49	0,50	0,56	0,64	0,71	0,76	0,70	0,72	0,72	0,69	0,64	0,36	0,18	0,11	0,06
2	Hamdo‘stlik	8,79	**7,0**	0,32	0,37	0,41	0,43	0,44	0,49	0,56	0,63	0,66	0,62	0,63	0,63	0,61	0,57	0,31	0,16	0,10	0,05
3	Yangibo‘ston	4,56	**3,6**	0,17	0,19	0,21	0,22	0,23	0,25	0,29	0,32	0,34	0,32	0,33	0,33	0,31	0,29	0,16	0,08	0,05	0,03
4	Yo‘ldosh Zoxidov	11,90	**9,5**	0,44	0,51	0,55	0,58	0,59	0,66	0,76	0,85	0,90	0,84	0,86	0,85	0,82	0,77	0,42	0,21	0,13	0,07
5	Buxoro	31,27	**25,0**	1,15	1,33	1,45	1,53	1,55	1,74	2,00	2,22	2,36	2,20	2,25	2,24	2,16	2,01	1,12	0,55	0,35	0,18
6	Axad Soyipnazarov	13,27	**10,6**	0,49	0,56	0,61	0,65	0,66	0,74	0,85	0,94	1,00	0,93	0,96	0,95	0,92	0,85	0,47	0,23	0,15	0,08
7	Mustaqillik	13,43	**10,7**	0,49	0,57	0,62	0,66	0,67	0,75	0,86	0,95	1,01	0,94	0,97	0,96	0,93	0,86	0,48	0,24	0,15	0,08
8	Oltin Vodiy	10,63	**8,5**	0,39	0,45	0,49	0,52	0,53	0,59	0,68	0,76	0,80	0,75	0,77	0,76	0,73	0,68	0,38	0,19	0,12	0,06
9	Oqbuloq	11,80	**9,4**	0,43	0,50	0,55	0,58	0,58	0,66	0,75	0,84	0,89	0,83	0,85	0,84	0,81	0,76	0,42	0,21	0,13	0,07
10	Turkiston	7,89	**6,3**	0,29	0,34	0,36	0,39	0,39	0,44	0,50	0,56	0,60	0,55	0,57	0,56	0,54	0,51	0,28	0,14	0,09	0,05
11	Mirzo Ulug‘bek	13,37	**10,7**	0,49	0,57	0,62	0,66	0,66	0,74	0,85	0,95	1,01	0,94	0,96	0,96	0,92	0,86	0,48	0,24	0,15	0,08
12	Farg‘ona	22,94	**18,3**	0,84	0,97	1,06	1,13	1,14	1,28	1,46	1,63	1,73	1,61	1,65	1,64	1,58	1,48	0,82	0,41	0,26	0,14
13	Samarqand	20,36	**16,3**	0,75	0,86	0,94	1,00	1,01	1,13	1,30	1,45	1,54	1,43	1,47	1,46	1,40	1,31	0,73	0,36	0,23	0,12
14	Xorazm	16,40	**13,1**	0,60	0,70	0,76	0,80	0,81	0,91	1,05	1,17	1,24	1,15	1,18	1,17	1,13	1,06	0,58	0,29	0,18	0,10
Xo‘jalik chegarasida:		**196,6**	**157,0**	**7,2**	**8,4**	**9,1**	**9,6**	**9,7**	**10,9**	**12,6**	**14,0**	**14,9**	**13,8**	**14,2**	**14,1**	**13,6**	**12,7**	**7,0**	**3,5**	**2,2**	**1,2**
Tuman chegarasida:		**206,8**	**168,8**	**7,8**	**9,0**	**9,8**	**10,4**	**10,5**	**11,8**	**13,5**	**15,0**	**16,0**	**14,8**	**15,2**	**15,1**	**14,6**	**13,6**	**7,5**	**3,7**	**2,4**	**1,2**
Shu jumladan:																					
MCHT		**102,34**	**87,863**	**3,88**	**4,99**	**5,40**	**5,69**	**5,74**	**6,68**	**7,45**	**7,76**	**7,99**	**7,48**	**7,72**	**7,56**	**7,29**	**6,81**	**3,77**	**1,87**	**1,19**	**0,62**
LR-12		**57,52**	**49,38**	**2,17**	**2,80**	**3,02**	**3,19**	**3,21**	**3,42**	**4,22**	**4,59**	**4,91**	**4,13**	**4,21**	**4,23**	**4,08**	**3,81**	**2,11**	**1,05**	**0,67**	**0,35**
PR-12-4		**36,75**	**31,55**	**1,70**	**1,19**	**1,37**	**1,50**	**1,52**	**1,67**	**1,83**	**2,68**	**3,07**	**3,24**	**3,30**	**3,32**	**3,20**	**2,99**	**1,66**	**0,82**	**0,52**	**0,27**

sarflari to‘g‘risida MA’LUMOT

Kommunal		**7,80**	**7,5**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**	**0,48**
Baliqchilik		**12,10**	**11,5**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**	**0,73**
Zovur suvlaridan																				
1	Buxoro	1,00	**1,4**										0,36	0,36	0,45	0,36				
2	Farg‘ona	0,30	**0,4**										0,11	0,11	0,14	0,11				
3	Mirza Ulug‘bek	0,50	**0,7**										0,18	0,18	0,23	0,18				
4	Xorazm	0,40	**0,5**										0,14	0,14	0,18	0,14				
Jami zovur suvlari:		**2,20**	**3,0**										**0,8**	**0,8**	**1,0**	**0,8**				
	Jami tuman bo‘yicha:		**171,8**	**7,8**	**9,0**	**9,8**	**10,4**	**10,5**	**11,8**	**13,5**	**15,0**	**16,0**	**15,6**	**16,0**	**16,1**	**15,4**	**13,6**	**7,5**	**3,7**	**2,4**	**1,2**